RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARIDA AXBOROT ALMASHINUVINI TAKOMILLASHTIRISH

“Muborak gazni qayta ishlash zavodi MCHJ misolida”

Abdullayev Munis

Xalqaro nordik universiteti,

Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasini mudiri,

PhD professor

Email: m.abdullayev@nordicuniversity.org

Orcid: 0000-0003-0290-8453

Annotatsiya. Neft-gaz sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ishlab chiqarish, laboratoriya va korporativ boshqaruv tizimlari o'rtasida uzluksiz axborot oqimlarini shakllantirishni talab etmoqda. Mavjud amaliyotda turli axborot platformalarining o'zaro moslashuv darajasining yetarli emasligi, ma'lumotlarning standartlashtirilmaganligi hamda ayrim jarayonlarning qo'lda bajarilishi boshqaruv samaradorligini cheklamoqda. Shu munosabat bilan ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlari o'rtasidagi integratsiya darajasi baholanib, axborot oqimlaridagi uzilishlar hamda ularning iqtisodiy ta'siri aniqlangan. Laboratoriya natijalarini qayta ishlash, energiya resurslari monitoringi va korporativ boshqaruv platformalarining o'zaro bog'liqligini kuchaytirishga qaratilgan integratsiyalashgan yechim ishlab chiqilgan. OPC UA, WITSML va PRODML standartlariga asoslangan taklif etilayotgan arxitektura yagona raqamli muhitni shakllantirish, real vaqt rejimida monitoringni tashkil etish, ma'lumotlar to'liqligini oshirish hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Natijada boshqaruv qarorlarining aniqligi ortishi, ishlab chiqarish samaradorligi yaxshilanishi va korxonaning raqamli transformatsiya darajasi yuksalishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, neft-gaz sanoati, axborot oqimlari, axborot integratsiyasi, SCADA, ERP, LIMS, Data Lake, OPC UA, WITSML, PRODML.

Abstract. The acceleration of digital transformation processes in oil and gas enterprises requires the establishment of continuous information flows between production, laboratory, and corporate management systems. In current practice, the limited interoperability of different information platforms, the lack of data standardization, and the presence of manual operations constrain management efficiency and the effective utilization of digital technologies. In this regard, the level of integration between production and management systems was assessed, and disruptions in information flows together with their economic implications were identified. An integrated solution aimed at strengthening the interaction among laboratory data processing, energy resource monitoring, and corporate management platforms was developed. The proposed architecture, based on OPC UA, WITSML, and PRODML standards, enables the creation of a unified digital environment, supports real-time monitoring, improves data completeness, and enhances the application of artificial intelligence technologies. The findings demonstrate that the proposed approach contributes to more accurate managerial decision-making, improved production efficiency, and a higher level of digital transformation within industrial enterprises.

Keywords: digital transformation, oil and gas industry, information flows, information integration, SCADA, ERP, LIMS, Data Lake, OPC UA, WITSML, PRODML.

Аннотация. Ускорение процессов цифровой трансформации на предприятиях нефтегазовой отрасли требует формирования непрерывных информационных потоков между производственными, лабораторными и корпоративными системами управления. В существующей практике недостаточная совместимость различных информационных платформ, отсутствие унификации данных, а также сохранение ряда ручных операций ограничивают эффективность управления и снижают потенциал использования цифровых технологий. В связи с этим проведена оценка уровня интеграции



производственных и управленческих систем, выявлены разрывы в информационных потоках и определены их экономические последствия. Разработано интегрированное решение, направленное на усиление взаимодействия между системами обработки лабораторных данных, мониторинга энергетических ресурсов и корпоративного управления. Предлагаемая архитектура, основанная на стандартах OPC UA, WITSML и PRODML, обеспечивает формирование единой цифровой среды, организацию мониторинга в режиме реального времени, повышение полноты данных и расширение возможностей применения технологий искусственного интеллекта. Обосновано, что внедрение данного подхода способствует повышению точности управленческих решений, улучшению производственной эффективности и дальнейшему развитию цифровой трансформации предприятия.

Ключевые слова: цифровая трансформация, нефтегазовая отрасль, информационные потоки, интеграция информации, SCADA, ERP, LIMS, Data Lake, OPC UA, WITSML, PRODML.

KIRISH

Neft-gaz sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, uning samarali faoliyati ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish hamda tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bevosita bog'liqdir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'lumotlar korxonalarining muhim strategik resursiga aylanib, ularni yig'ish, qayta ishlash va boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli neft-gaz korxonalarida axborot almashinuvini takomillashtirish va turli axborot tizimlari o'rtasida yagona ma'lumotlar muhitini shakllantirish raqamli transformatsiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda neft-gaz sanoati korxonalarida SCADA, DCS, MES, ERP va LIMS kabi zamonaviy axborot tizimlari keng qo'llanilmoqda. Ushbu tizimlar texnologik jarayonlarni nazorat qilish, ishlab chiqarishni boshqarish, laboratoriya tahlillarini yuritish hamda moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni monitoring qilish imkonini beradi. Biroq amaliyotda mazkur tizimlar ko'pincha mustaqil faoliyat yuritib, ular o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi va integratsiya darajasini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Natijada ayrim hollarda ma'lumotlarning takrorlanishi, uzatilish jarayonidagi vaqt tafovutlari hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborotlarni tezkor shakllantirish bilan bog'liq masalalar kuzatiladi.

Tadqiqot obyekti hisoblangan "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MCHJda ham ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Korxonada SCADA, DCS, MES va ERP tizimlari faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, laboratoriya ma'lumotlarini boshqaruvchi LIMS hamda energiya hisobini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarining korporativ axborot muhiti bilan integratsiya darajasini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Xususan, laboratoriya natijalarining ERP tizimiga qo'lda kiritilishi ma'lumotlarning 4–8 soat vaqt oralig'ida uzatilishiga hamda inson omili bilan bog'liq xatoliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, energiya sarfi bo'yicha ma'lumotlarni boshqaruv tizimlari bilan yanada chuqur integratsiya qilish energiya samaradorligini kompleks baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, neft-gaz sanoati korxonalarida axborot almashinuvini takomillashtirish, ma'lumotlar integratsiyasini kuchaytirish hamda yagona ma'lumotlar omborini shakllantirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqotning maqsadi raqamli transformatsiya sharoitida "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MCHJ misolida axborot almashinuvini takomillashtirishning tashkiliy, texnologik va iqtisodiy mexanizmlarini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish korxonada ma'lumotlar to'liqligini oshirish, boshqaruv qarorlarining aniqligini kuchaytirish hamda sun'iy intellekt va analitik texnologiyalarni samarali joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi sanoat korxonalarida axborot almashinuvi tizimlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirmoqda. Ayniqsa, neft-gaz sanoatida ishlab chiqarish, laboratoriya va korporativ boshqaruv tizimlari o'rtasida integratsiyalashgan axborot muhitini shakllantirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida A.N. Dmitrievskiy va N.A. Yeremin neft-gaz sanoatida raqamli ekotizimlarni shakllantirish masalalarini tadqiq etib, raqamlashtirish jarayonining samaradorligi ma'lumotlar integratsiyasi va yagona axborot platformasini yaratish bilan bevosita bog'liqligini asoslab berganlar. Ularning fikricha, geologik, texnologik va boshqaruv ma'lumotlarining yagona muhitda birlashtirilishi sun'iy intellekt hamda bashoratli tahlil texnologiyalarini joriy etishning asosiy sharti hisoblanadi.



M. Porter va J. Heppelmann sanoat korxonalarida “aqli ishlab chiqarish” konsepsiyasini ishlab chiqib, raqamli texnologiyalar asosida real vaqt rejimida ma’lumotlar almashinuvini tashkil etish korxonalar raqobatbardoshligini oshirishini ta’kidlaydilar. S. Ross, P. Weill va J. Woerner tadqiqotlarida esa korxonalar raqamli transformatsiyasida ma’lumotlarni boshqarish va integratsiyalashgan axborot infratuzilmasining ahamiyati yoritilgan.

Neft-gaz sanoatida axborot standartlarini ishlab chiqish bo’yicha Energy Standards tashkiloti tomonidan taklif etilgan WITSML, PRODML va RESQML standartlari turli axborot tizimlari o’rtasida ma’lumotlar almashinuvini samarali tashkil etish mexanizmi sifatida baholanadi. *Frontiers in Earth Science* jurnalida chop etilgan tadqiqotlarda ma’lumotlarni boshqarish (*Data Governance*) tamoyillari raqamli transformatsiyaning institutsional asosi sifatida e’tirof etilgan. Deloitte, Ernst & Young hamda McKinsey kompaniyalari hisobotlarida ham neft-gaz korxonalarida ma’lumotlarning tarqoq shakllanishi boshqaruv samaradorligini oshirishda e’tibor qaratilishi lozim bo’lgan muhim omillardan biri sifatida qayd etilgan.

Mahalliy olimlardan B.A. Begalov, R.X. Ayupov, G.R. Boltaboyev va M.K. Abdullayev raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o’rnini o’rganib, axborot resurslaridan samarali foydalanish raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaganlar. B.Yu. Xodiyev va A.V. Vahobovning ilmiy ishlarida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, ma’lumotlar bazalarini shakllantirish va raqamli platformalarni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, S.S. G’ulomov tadqiqotlarida sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar va biznes-analitika texnologiyalarining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Mazkur ilmiy qarashlar korxonalarda axborot tizimlarini integratsiyalash va yagona raqamli muhitni shakllantirish samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligini ko’rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda neft-gaz sanoati korxonalarida axborot almashinuvini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o’rganishga qaratilgan kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida korxonaning ishlab chiqarish, laboratoriya va korporativ boshqaruv tizimlari o’rtasidagi axborot oqimlari tahlil qilindi. Xususan, SCADA, DCS, MES, ERP, LIMS hamda energiya monitoringi tizimlari faoliyati o’rganilib, ularning o’zaro integratsiyalashuv darajasi baholandi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, kuzatish hamda axborot oqimlarini xaritalash usullari tashkil etdi. Tizimli tahlil yordamida axborot almashinuvini jarayonining o’ziga xos jihatlari va ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri aniqlandi. Qiyosiy tahlil usuli orqali “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MCHJdagi mavjud amaliyot jahon neft-gaz kompaniyalari tajribasi bilan taqqoslandi. Iqtisodiy-statistik tahlil asosida axborot integratsiyasini yanada rivojlantirish imkoniyatlarining korxonalar faoliyatiga ta’siri baholandi.

Shuningdek, korxonadagi ma’lumotlar oqimlari xaritasi tuzilib, axborotlarning shakllanishi, uzatilishi va qayta ishlanish bosqichlari o’rganildi. Olingan natijalar asosida OPC UA, WITSML va PRODML standartlariga tayangan integratsiyalashgan axborot almashinuvini arxitekturasi ishlab chiqildi hamda uning kutilayotgan iqtisodiy va tashkiliy samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MCHJda axborot almashinuvini tizimining amaldagi holatini baholash natijalari shuni ko’rsatdiki, korxonada bir qator zamonaviy axborot tizimlari joriy etilgan va ular ishlab chiqarish hamda boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirishda muhim o’rin tutmoqda. Shu bilan birga, mazkur tizimlar o’rtasidagi integratsiya darajasini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Xususan, SCADA, DCS, MES va ERP tizimlari o’rtasida ma’lumotlar almashinuvini yo’lga qo’yilgan bo’lsa, LIMS hamda energiya hisobini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimining (EHABT) yagona axborot muhiti bilan integratsiyasini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud.

Tahlillar natijasida korxonadagi umumiy ma’lumotlar omborining to’liqlik darajasi taxminan 60 foizni tashkil etishi aniqlangan. Bu esa axborot oqimlarini yanada integratsiyalash va ma’lumotlar almashinuvining uzluksizligini ta’minlash orqali boshqaruv samaradorligini oshirish uchun qo’shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko’rsatadi (1-jadval).




1-jadval

“Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MCHJda axborot almashinuvi muammolarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri¹

Muammo turi	Amaldagi holat	Ta'siri
LIMS ma'lumotlarining qo'lda kiritilishi	4–8 soat kechikish	Ma'lumotlar xatoligi 8–12 %
EHABT ma'lumotlarining integratsiyalanmaganligi	Real vaqt monitoringi mavjud emas	Energiya samaradorligi pasayadi
Ma'lumotlar standartlashuvining pastligi	Turli tizimlarda turlicha nomlanish	AI/ML aniqligi 30–40 % ga kamayadi
OPC-DA va OPC-UA nomuvofiqligi	5–15 daqiqa kechikish	Tezkor boshqaruv cheklanadi
Integratsiyalashmagan axborot maydoni	BI hisobotlari to'liq emas	Qarorlar aniqligi 20–25 % ga pasayadi

Tahlil natijalari korxonada axborot oqimlarining uzluksizligini ta'minlash uchun LIMS va EHABT tizimlarini yagona ma'lumotlar omboriga integratsiya qilish zarurligini ko'rsatdi. Shuningdek, OPC-UA, WITSML va PRODML standartlarini joriy etish ma'lumotlar almashinuvi sifatini yaxshilashga xizmat qilishi aniqlandi. Taklif etilgan integratsiyalashgan arxitektura ma'lumotlar to'liqligini 60 foizdan 100 foizgacha oshirish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MCHJda axborot almashinuvining amaldagi holati

1 Manba: Muallif tominidan “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MCHJ ma'lumotlari asosida tuzilgan



1-rasmda SCADA, DCS, MES va ERP tizimlari o'rtasida qisman integratsiya mavjudligi, LIMS va EHABT tizimlarining esa yagona axborot muhitidan ajralgan holda faoliyat yuritayotgani aks ettirilgan. Mazkur holat BI dashbordlari va sun'iy intellekt algoritmlarining to'liq ishlashiga to'sqinlik qilmoqda (2-jadval).

2-jadval

Taklif etilgan integratsiyalashgan axborot arxitekturasi natijalari²

Ko'rsatkich	Amaldagi holat	Taklif etilgan holat
Ma'lumotlar integratsiyasi	60 %	100 %
LIMS ma'lumotlari uzatilishi	4–8 soat	Real vaqt rejimida
Qaror qabul qilish tezligi	O'rtacha	Yuqori
BI tahlillari aniqligi	Cheklangan	Yuqori
AI/ML samaradorligi	Past	30–40 % ga yuqori

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, axborot tizimlarini integratsiyalash va yagona ma'lumotlar omborini shakllantirish korxonada raqamli transformatsiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Natijada boshqaruv qarorlarining aniqligi ortadi, energiya va ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi yaxshilanadi hamda sun'iy intellekt asosidagi tahliliy tizimlarni joriy etish uchun zarur infratuzilma yaratiladi.

Tadqiqot natijalari neft-gaz sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarining samaradorligi ko'p jihatdan axborot almashinuvi tizimlarining integratsiyalashuv darajasiga bog'liqligini ko'rsatdi. "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MCHJ misolida olib borilgan tahlillar korxonada zamonaviy SCADA, DCS, MES va ERP tizimlari joriy etilganligini hamda ularning ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarida faol qo'llanilayotganligini tasdiqladi. Shu bilan birga, ayrim axborot manbalarini yagona ma'lumotlar muhitiga integratsiyalash darajasini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Xususan, laboratoriya axborot tizimi (LIMS) hamda energiya hisobini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimining korporativ boshqaruv platformalari bilan integratsiyasini kengaytirish axborot oqimlarining uzluksizligini yanada ta'minlash imkonini beradi. Natijada ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardan foydalanish jarayonlarining tezkorligi hamda boshqaruv qarorlarining aniqligini oshirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratiladi.

Olingan natijalar xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi. Xususan, A.N. Dmitrievskiy va N.A. Yeremin neft-gaz sanoatida raqamli ekotizimlarni shakllantirish uchun turli axborot tizimlarini yagona platforma asosida integratsiyalash zarurligini ta'kidlaganlar. Tadqiqot davomida aniqlangan holatlar ham ma'lumotlarning turli tizimlarda shakllanishi va ularni standartlashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish zarurligi bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Bu esa korxonada sun'iy intellekt va biznes-analitika texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish hamda mavjud ma'lumotlar bazasining amaliy samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, axborot almashinuvini takomillashtirish faqat texnik modernizatsiya bilan cheklanib qolmasligi lozim. Xalqaro tajriba ma'lumotlarni boshqarish, standartlashtirish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish texnologik yangilanishlar bilan uyg'un holda amalga oshirilganda yuqori natijalarga erishish mumkinligini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, korxonada yagona ma'lumotlar lug'atini shakllantirish, ma'lumotlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar asosida OPC UA, WITSML va PRODML standartlariga tayangan integratsiyalashgan axborot arxitekturasi korxonada uchun istiqbolli yechim sifatida baholandi. Mazkur yondashuv ma'lumotlar almashinuvining uzluksizligini ta'minlash, real vaqt rejimida monitoringni tashkil etish hamda turli axborot tizimlari o'rtasida uzviy bog'liqlikni kuchaytirish imkonini beradi. Shuningdek, yagona ma'lumotlar omborining shakllantirilishi boshqaruv qarorlarining ishonchiligi oshirib, sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalarini qo'llash uchun zarur bo'lgan axborot bazasini yaratadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari neft-gaz sanoati korxonalarida axborot almashinuvini takomillashtirish raqamli transformatsiyaning muhim tarkibiy qismi ekanligini tasdiqladi. Taklif etilgan tashkiliy va texnologik yechimlarni bosqichma-bosqich joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish hamda boshqaruv tizimlarining raqamli rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi. Bu esa

2 Manba: muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan



korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini mustahkamlash va sanoatda innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya sharoitida neft-gaz sanoati korxonalarida axborot almashinuvini samarali tashkil etish ishlab chiqarish jarayonlari barqarorligini ta'minlash va boshqaruv qarorlari sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MCHJda SCADA, DCS, MES va ERP tizimlari samarali faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, LIMS hamda energiya hisobini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini korporativ axborot muhiti bilan integratsiyalash darajasini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ma'lumotlar almashinuvining tezkorligini oshirish, axborotlarning to'liqligini ta'minlash va boshqaruv qarorlarining aniqligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida korxonada axborot oqimlarini boshqarish jarayonida ma'lumotlarni standartlashtirish, turli axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiyani kengaytirish hamda ayrim jarayonlarni avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi. Ushbu yo'nalishlarni rivojlantirish sun'iy intellekt va biznes-analitika texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda raqamli transformatsiya natijadorligini yanada kuchaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan rivojlantirish yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadida OPC UA, WITSML va PRODML standartlariga asoslangan integratsiyalashgan axborot almashinuvini arxitekturasi taklif etildi. Ushbu yondashuv turli axborot tizimlarini yagona ma'lumotlar ombori asosida birlashtirish, real vaqt rejimida monitoringni tashkil etish va ma'lumotlar to'liqligini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, taklif etilgan yechimlar boshqaruv qarorlarining aniqligini yanada oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur axborot infratuzilmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, neft-gaz sanoati korxonalarida axborot almashinuvini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan tashkiliy va texnologik takliflarni amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish ma'lumotlar integratsiyasi darajasini oshirish, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash va korxonalarining raqamli rivojlanish salohiyatini kuchaytirishga imkon beradi. Shu jihatdan, tadqiqot natijalari neft-gaz sanoatida raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev M.K. Korxonada boshqaruvida axborot tizimlaridan samarali foydalanish jarayonlarining tadqiqi: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 156 b.
2. Ayupov R.X., Boltaboyev G.R. *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020. – 432 b.
3. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. *Iqtisodiyot nazariyasi*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 512 b.
4. G'ulomov S.S. *Raqamli iqtisodiyot va elektron biznes*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 368 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoqilg'i-energetika sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish va «Raqamli energonazorat» tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-77-son Farmoni. – 2023-yil 24-may.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Neft va gaz sohasida ta'lim-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-309-son Qarori. – 2022-yil 7-iyul.
7. Dmitrievskiy A.N., Yeremin N.A. Bolshiye geodannye v tsifrovoy neftegazovoy ekosisteme // *Neftyanoye xozyaystvo*. – 2018. – № 2. – S. 31–37.
8. Dmitrievskiy A.N., Yeremin N.A. Tsifrovaya modernizatsiya neftegazovogo kompleksa Rossii // *Energeticheskaya politika*. – 2018. – № 5. – S. 6–15.
9. Porter M.E., Heppelmann J.E. How Smart, Connected Products Are Transforming Competition // *Harvard Business Review*. – 2014. – Vol. 92, No. 11. – P. 64–88.
10. Weill P., Woerner S.L. *What's Your Digital Business Model? Six Questions to Help You Build the Next-Generation Enterprise*. – Boston: Harvard Business Review Press, 2018. – 256 p.
11. Data Governance Facilitate Digital Transformation of Oil and Gas Industry // *Frontiers in Earth Science*. – 2022. – Vol. 10. – Article 861091.
12. Ernst & Young. *Digital Transformation in Oil and Gas Industry: Challenges and Opportunities*. – London: EY Global Report, 2022.



13. Deloitte. *Digital Transformation and Data Management in the Oil and Gas Sector*. – New York: Deloitte Insights, 2022.
14. *Oil & Gas Data Management Market Report 2023–2028: Global Industry Analysis and Forecast Report*. – London: Market Research Future, 2023.
15. Energy Standards Organization. *WITSML, PRODML and RESQML Standards Overview*. – Houston, 2023.
16. *SCADA & ERP Data Fragmentation in Oil & Gas Industry: DRI Guide*. – Innoflexion Research Report, 2024.
17. McKinsey & Company. *The Digital Future of Oil and Gas*. – New York: McKinsey Global Institute, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>